

**YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING IJTIMOY-MA’NAVY MUHITNI SOG‘LOMLASHTIRISHDAGI O‘RNI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

**Komilov Dilshodbek Tursunboy o‘g‘li**

Qo‘qon universiteti Andijon filiali katta o‘qituvchisi, dotsent v. b.,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: komilovdilshodbek1990@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-8936-803X>

UDK 323.21:352(575.1)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18980714>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda mahalla institutining ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Mahalla tarixiy va milliy qadriyatlarga tayangan holda jamiyat hayotida muhim tarbiyaviy, ma’naviy va ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida mahallaning huquqiy maqomi mustahkamlanib, uning vakolatlari kengaytirilmoqda. Maqolada Andijon viloyati misolida mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, jinoyatchilik va oilaviy ajrimlarning oldini olish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlar tarbiyasini takomillashtirish borasidagi amaliy chora-tadbirlar yoritilgan. Shuningdek, mahalla institutini chinakam fuqarolik jamiyati institutiga aylantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahalla, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy-ma’naviy muhit, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, islohotlar, xotin-qizlar, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy barqarorlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль института махалли в оздоровлении социально-духовной среды, формировании гражданского общества и обеспечении социальной стабильности в условиях Нового Узбекистана. Махалля, опираясь на исторические и национальные ценности, выступает важным воспитательным, духовным и социальным институтом общества. В рамках реформ, проводимых Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым, укрепляется правовой статус махалли и расширяются её полномочия. На примере Андижанской области раскрываются практические меры по стабилизации социально-духовной среды, профилактике преступности и семейных разводов, поддержке женщин и совершенствованию воспитания молодежи. Также в статье научно обосновываются вопросы трансформации махалли в полноценный институт гражданского общества.

**Ключевые слова:** махалля, гражданское общество, социально-духовная среда, органы самоуправления, реформы, женщины, воспитание молодежи, социальная стабильность.

**Abstract.** This article analyzes the role of the mahalla institution in strengthening the socio-spiritual environment, developing civil society, and ensuring social stability in New Uzbekistan. Based on historical and national values, the mahalla functions as an important educational, spiritual, and social institution within society. Within the framework of reforms initiated by the President of the Republic of Uzbekistan, Sh.M. Mirziyoyev, the legal status and authority of the mahalla have been significantly strengthened. Using the example of Andijan region, the article highlights practical measures aimed at stabilizing the socio-spiritual environment, preventing crime and family conflicts, supporting women, and improving youth education. The study also provides a theoretical justification for transforming the mahalla into a fully-fledged institution of civil society.

**Keywords:** mahalla, civil society, socio-spiritual environment, self-governance bodies, reforms, women, youth education, social stability.

### **Kirish**

O‘zbek xalqining o‘ziga xos turmush tarzi, madaniyati, va milliy an‘analariga asoslangan axloqiy-ma’naviy qadriyatlar tarixan ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelgan va ularning asosiy markazi mahalla institutlari hisoblanadi. Mahalla, o‘zining tarixiy roli va funksiyalaridan kelib chiqqan holda, xalqimizning ijtimoiy hayotini shakllantiruvchi, tarbiyaviy va ma’naviy muassasasi sifatida xizmat qilmoqda. Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasida mahallalarning ma’naviy-ma’rifiy jarayonlardagi o‘rni va ta’siri sezilarli darajada o‘zgarib, ularning tizimli ravishda isloh etilishi amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlar mahallaning jamiyatdagi ahamiyatini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

ta’minlash va fuqarolarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida, xalqimizga munosib hayot tarzini yaratish, uning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Yangilanayotgan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar doirasida mahalla institutining o‘rni yanada oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning fikriga ko‘ra: “Mahalla asrlar osha milliy urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik maskani bo‘lib kelmoqda”. Bu fikr mahallaning nafaqat ma’naviy va axloqiy qadriyatlarini saqlashdagi, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi[1] deya ta’kidlagan edi.

Mahallada keng jamoatchilik o‘rtasida ma’naviy ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish uchun katta imkoniyatlar mavjud bolibgina qolmay, milliy qadriyatlar, mehr-oqibat va el-yurt sha’nini himoya qilish kabi fazilatlar mahallada shakllanib, rivojlanadi. Mahallada amalga oshiriladigan an’anaviy bayramlar va tadbirlar paytida muhtoj oilalarga yordam ko‘rsatish, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish, ayollarning oiladagi nufuzini oshirish, turli adolatsizliklarning oldini olish, davlat hokimiyatining boshqa muassasalari bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish va hamkorlikda tadbirlar uyushtirish, turli avlod vakillari o‘rtasidagi uchrashuvlarni tashkil etish kabi faoliyatlar mahalla doirasida o‘ziga xos tarzda amalga oshirilib kelinmoqda. Mamlakatimizda demokratik islohotlar asosida fuqarolik jamiyatini qurish strategik maqsad sifatida kun tartibiga qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda fuqarolarning faolligini oshirish, ularning siyosiy, ma’naviy va ma’rifiy bilimini mustahkamlash, o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqiy maqomini mustahkamlash, jamiyatni erkinlashtirish va boshqaruvni nomarkazlashtirish omillari alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Binobarin, mahalla fuqarolar yig‘inlarining fuqarolik jamiyati instituti maqomiga erishishini ta’minlashga doir tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida olib borilayotgan islohotlar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligini ta’minlash, hamda davlatning quyi organlari emas, balki fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyat ko‘rsatishga imkon yaratish eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tarixan qisqa davrda ichida mamlakatdagi mahallalar oldingi totalitar tuzumdagi partiya va davlat organlarining xalqni mutelikda ushlab turish vositasi sifatidagi roliga barham berilib, ular tadrijiy ravishda fuqarolik jamiyati instituti sifatida rivojlana boshladi.

Siyosatshunos olim M. Qirg‘izboyevning ta’kidlashicha, O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimi, ikki asosiy yo‘nalishdan iborat vakolatlarni nazarda tutadi. Birinchi yo‘nalish ma’naviy sohada vazifalarni o‘z ichiga oladi, bu vazifalar xalqning ming yillik tarixiga asoslangan noyob, xalqchil an’ana va qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Ikkinchi yo‘nalish esa siyosiy vazifalarga qaratilgan bo‘lib, unda o‘zini o‘zi boshqarish institutlarini hozirgi davr talablariga muvofiq tarzda qayta tiklash bilan birga, viloyat, shahar va tuman hokimlari vakolatlarining bir qismini o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, xususan mahallalarga berish taklif qilinadi. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatidagi faoliyati, davlat va jamiyat hayotining muhim masalalarini mustaqil hal qilish qobiliyati bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lib, bu ularning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi maqomini belgilaydi[2.196]. Ushbu organlarini chinakam jamiyat vijdoni sifatida shakllantirish maqsadida mahalla institutida ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish yo‘nalishini rivojlantirish muhimdir. Bu yo‘nalishda olib boriladigan ishlar vodiy mahallalari aholisida o‘rtasida buzg‘unchi kayfiyatlarining oldini olish, radikalizmga qarshi samarali kurashish, noto‘g‘ri yo‘nalishga kirib qolganlarni qayta ijtimoiylashtirish va eskicha fikrlash tarzidan voz kechishga ko‘maklashishga qaratilgan.

Mustaqillikning dastlabki bosqichlaridan boshlab, mahalla instituti aholini ma’naviy-ma’rifiy jihatdan barqarorlashtirishga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta’minlashga, sohaga oid qonun hujjatlari ijrosini ta’minlashga va aholini manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatini kengaytirishga katta e’tibor qaratdi. Mahalla tizimi, shuningdek, bandlikka ko‘maklashish, kam ta’minlangan oilalarni, yolg‘iz keksalarni, pensionerlarni va nogironlarni aniqlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi fuqarolarni ish bilan ta’minlash kabi ijtimoiy muammolarni hal qilishga alohida ahamiyat bermoqda. Bu jarayonlar, mahallaning jamiyatdagi o‘rni va funksiyalarini mustahkamlash, aholi turmush sharoitlarini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilgan. Davlat tomonidan ushbu yo‘nalishdagi tashabbuslari va amalga oshirilayotgan ishlar davlatning ijtimoiy siyosatini samarali bajarishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ijtimoiy adolatni ta’minlash va fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratishga yordam bergan. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam poydevorini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Mahallalardagi ma’naviy muhitni mustahkamlash va aholi tomonidan sodir etilayotgan axloqiy me’yorlarga zid ishlar o‘rganilganda Andijon viloyatining Asaka, Xo‘jaobod, Jalaquduq, Shahrixon, Qo‘rg‘ontepa tumanlarida jinoyatchilik holatlari ancha yuqori ekanligi viloyat jamoatchilik kengashlari tomonidan aniqlangan. 2016 yilda Andijon shahrida axloqsizlik jinoyatlarini sodir etgan ayollar 8 nafarni tashkil etgan. Viloyatning qo‘shni davlatlar bilan chegara hududlaridagi xonadonlarda o‘tkazilgan suhbatlar davomida 40 nafardan ortiq fuqarolarning fuqaroligi yo‘qligi aniqlangan, 180 ta holatda oilaviy kelishmovchiliklar mavjud oilalarda tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazilgan. Ayni paytda kelishmovchiliklar mavjud oilalarga kirilib, uning sabablari o‘rganilganda, ulardan 32 tasi qaynona-kelin va boshqa oila a‘zolari bilan kelishmovchiliklar, 56 tasi er-xotin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, 15 tasi 2 yildan ortiq yashab farzand ko‘rmaganlar, 11 tasi ayollarning salomatligi yomonligi ekani aniqlandi. 16 tasi erining boshqa davlatga ketib, qaytib kelmaganligi, 6 tasi 2-3 sotix hovlida 3-4 tadan oilalar yashayotganligi, qolgan 44 tasi boshqa turli sabablar bilan yuzaga kelganligi aniqlandi. 2016 yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o‘rtasida 8 mingdan ortiq ajralish holatlari qayd etilganligi davlat rahbari tomonidan tashvishli holat sifatida e’tirof etilgan[3.508]. Ijtimoiy muammolarni hal etish, oilalar o‘rtasidagi barqarorlikni ta’minlash uchun kompleks chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu muammolarni hal etishda oila va jamiyatning ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zaro hamkorligi va ijtimoiy xizmatlarning samaradorligini oshirish, kerakligini taqozo etmoqda.

2017-yilda Andijon viloyatida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash va konfessiyalararo hamda millatlararo totuvlikni mustahkamlashga qaratilgan aniq vazifalar belgilandi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun mutasaddi tashkilot rahbarlari 400 ta mahallada uchrashuvlar o‘tkazdi, natijada 3000 ga yaqin mahalla muammolari joyida bartaraf etildi. Respublika ishchi guruhi bilan birgalikda, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish maqsadida, 868 ta mahalladagi 523 858 ta xonadonlarga tashrif buyurildi, aholining muammolari o‘rganildi va ularni bartaraf etish maqsadida 2 million 312 ming 688 nafar fuqarolar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Suhbatlar natijasida fuqarolarning muammolaridan kelib chiqib, 1368 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari, 327 ta sog‘liqni saqlash muassasalari, 1320 ta ta’lim muassasalari va 423 ta boshqa tashkilotlar faoliyati o‘rganildi. O‘rganishlar natijasida aholini o‘ylantirayotgan va yechimini kutayotgan muammolar turli yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlangan. Jumladan, iqtisodiy yo‘nalishda 4589 ta, ijtimoiy-ma’naviy muhit yo‘nalishida 3812 ta, diniy faoliyat yo‘nalishida 100 ta, mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyatida 2091 ta, ta’lim yo‘nalishida 572 ta, sog‘liqni saqlash yo‘nalishida 1971 ta va xizmat ko‘rsatish sohalarida 1439 ta muammo mavjudligi aniqlangan. Umumiy hisobda, viloyat bo‘yicha jami 14 574 ta muammo aholi tomonidan ko‘tarilgan. Ushbu muammolarning 85,8 foizi (12 511 ta) ishchi guruhi a‘zolari tomonidan joyida bartaraf etilgan. Qolgan 2063 ta muammoning 64 tasi respublika darajasida, 127 tasi viloyat darajasida va 1872 tasi shahar-tumanlar kesimida hal etilishi rejalashtirilgan. Bu jarayonning ahamiyati va jihatlari mahallalarda fuqarolarning muammolarini tezkor aniqlash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va umumiy farovonlikni oshirishda muhim rol o‘ynadi. Andijon viloyatida amalga oshirilgan tadbirlar, aholining ijtimoiy muammolarini o‘rganish, ularni hal qilish va ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga katta hissa qo‘shdi. Xususan, Asaka tumanidagi “Yangi sor” mahalla fuqarolar yig‘ini misolida, ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish maqsadida 2017-yil aprel-may oylarida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur asosida, 25 aprel kuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining xatiga asosan, Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika Kengashi qoshidagi jamoatchilik nazorati guruhi tomonidan mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillari jinoyatchilik holatlarining kelib chiqishi, notinch oila va ajrashish yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Bu holat, o‘z navbatida, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun oilaviy munosabatlarni mustahkamlash zarurligi mahallalarda sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish maqsadida hudud prflaktika inspektorlari bilan hamkorlikda mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan hamda mahalla faollari bilan birgalikda jinoyatchilik sabablarini tahlil qilish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Mahalladagi 25 nafar jinoyat sodir etishga moyilligi bor fuqarolar o‘rganilib, ular o‘rtasida mahalladagi nuroniyalar ko‘magida targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-noyabrdagi videoselektorida davlat va tashkilot xodimlari hamda nuroniy faollariga mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash aholi, qolaversa yoshlar hamda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu topshiriq asosida “Nuroniy” jamg‘armasi uning joylardagi tuzilmalari tomonidan amaliy ahamiyatga molik bir qator ishlar amalga oshirildi. Asosiy e’tibor mahallalarda jinoyat sodir etishga moyilligi bor

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

fuqarolarni hamda profilaktik hisobda turgan tarbiyasi og‘ir yoshlar, shuningdek, notinch oilalar farzandlari va ularning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan ishlashda manzilli “yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-sonli “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida oila va mahalladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, xotin-qizlarni jamiyatdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida e‘tiborga olinishi bilan birga, bir qator yechimini kutayotgan muammolarga ham urg‘u berilgan. Xususan, farmonda mahalla fuqarolar yig‘inlariga ularga tegishli bo‘lmagan funksiyalar yuklatilishi, ularning boshqa quyi idoralar bilan hamkorligi tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagani, oila, xotin-qizlar va keksalarga yordam ko‘rsatishning yaxlit tizimining mavjud emasligi va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida ko‘rilayotgan choralar samarali natija bermayotganligi alohida ta’kidlangan. Ushbu farmon, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirish yo‘lida amalga oshiriladigan keng ko‘lamli islohotlarni o‘zida aks ettiradi. Xotin-qizlarni jamiyatdagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, mahallalardagi huquqiy va ma’naviy salbiy holatlar bilan kurashish uchun tizimli yondashuvni joriy etish zarurligini ko‘rsatadi[6].

Mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, xotin-qizlarni jamiyatdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ularning ish bilan bandligini ta’minlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi rolini oshirish, keksalar, faxriylar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bularni amalga oshirish orqali oilaviy va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, hunarmandchilikni kengaytirish va aholi tomorqa yerlaridan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida ko‘plab ijtimoiy va iqtisodiy yordam choralari ko‘rilmoqda. Fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hamda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan qarorlar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, oilada xotin-qizlar va keksa avlod vakillari bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish, mahallalarni rag‘batlantirishni yanada takomillashtirish, gender tengligini ta’minlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularni tadbirkorlikka yo‘naltirish kabi vazifalar belgilangan. Xotin-qizlarga og‘ir ijtimoiy ahvolda yordam ko‘rsatish, ular uchun manzilli yordam berish tizimini yaratish, oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va farovonlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar o‘z ichiga olgan.

“Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasini jamiyatda keng targ‘ib qilish, mahallalarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishda strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqish, samarali yordam ko‘rsatadi. Bu jarayonda ta’sirchan, ilg‘or va zamonaviy uslublardan keng foydalanish, mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, qadriyatlar va urf-odatlarini saqlash hamda insonparvarlik g‘oyalariga tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur faoliyat, bunyodkorlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilishni kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi[7.5-7].

Xulosa qilib aytganda, mahalla instituti Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va aholi farovonligini oshirishda muhim tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mahallalarning huquqiy maqomi mustahkamlanib, ularning mustaqilligi va mas’uliyati oshirilmoqda. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasi, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi tizimli chora-tadbirlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Kelgusida mahalla institutining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish va fuqarolarning faolligini oshirish orqali uning fuqarolik jamiyati institutidagi o‘rnini yanada mustahkamlash zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 22 март №58 (314).
2. Қирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: генезиси, шаклланиши ва ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 196.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 508.
4. О‘zR ПAA Andijon viloyat bo‘limi,4141-fond,1-ro‘yxat, 01-03-yig‘majild, 222-varaq.
5. О‘zR ПAA Andijon viloyat bo‘limi,4141-fond, 36-ro‘yxat, 478-yig‘majild, 154-156-

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**  
varaqlar.

6. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.02.2020 й., 06/20/5938/0187-сон.
7. О‘zРПАА Farg‘ona viloyat bo‘limi, 2048-fond, 49-ro‘yxat, 64-yig‘majild, 5-7-varaqlar.